



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

BUXORO XONLIGI IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTIDA JO'YBORIY XOJA

MUHAMMAD ISLOMNING TUTGAN O'RNI

Mirzayev Jabborgan Tohirboy o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent

davlat pedagogika universiteti tarix fakulteti

4 bosqich talabasi talabasi.

Anotatsiya

Ushbu tezisda Buxoro xonligi ijtimoiy-siyosiy hayotida jo'yboriy xoja Muhammad Islomning mamalakat hayotida o'rni faoliyati va abdullaxon II bilan munosabatlarning o'ziga xosligi va siyosiy va iqtisodiy qurulish ishlarida xojaning beqiyos o'rnini olib berishdan iborat.

Kalit so'zlari: Jo'ybor, Muhammad Islom xoja, Abdullaxon II, Safviy, Cho'rjoy, Balx, Pirmuhammad.

Xoja Muhammad Islomning Abdullaxon II ning markazlashgan davlat tuzish yo'lidagi qattiqqa'l siyosatini qo'llab quvvatlagan. Buxoro xonligidagina emas, balki butun musulmon Sharqida uning nufuzi baland bo'lgan. Hindiston, Eron, Koshg'ar, Badaxshon hukmdorlari u bilan xat yozishib turishgan. Movarounnahrdagi siyosiy jarayonlarda Mahdumi A'zam vafoti (1542) dan so'ng markaziy siymo (yirik diniy ulamo) sifatida asosiy rol o'ynagan. Xoja Islom boshdanoq Abdullaxonni qo'llab-quvvatlab, yosh bo'lishiga qaramay, tashrif onlarida uni barcha shayboniyzodalardan yuqoriyoqqa, o'z yoniga o'tqizib, alohida iltifot ko'rsatardi. Xoja Islomning Abdullaxonga bo'lgan bunday munosabati ostida siyosiy maqsadlar yotardi. Bir so'z bilan aytganda, Xoja Islom Abdullaxonni Buxoro taxtiga o'tirishga tayyorlab borardi¹. P. P. Ivanovning ta'kidlashicha, Xoja Islom bilan Abdullaxon o'rtasidagi munosabatlar 1557 yildan so'ng ya'ni Abdullaxon Buxoroni egallaganidan keyin yanada quyuqlashgan².

Safaviylar davlatining shohlari O'rta Osiyo musulmonlarni haj ziyoratiga borishga to'sqinlik qila boshlashdi. Hajga boradigan yo'larning asosiysi aynan O'rta Osiyo musulmonlari uchun Eron Safaviylar hududidan o'tar edi. Bu masalani ham

¹ Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq nashriyoti, 2001. – B. 241.

² Иванов П. П. Хозяйство джуйбарских шейхов, -С. 50-51.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

hal qilish podshohlar bilan bir qatorda shayxlarning ham gardaniga tushar edi. XVI asr 60-yillarida Safaviylar davlati bilan Shayboniyalar o'rtasida ziddiyatlar yangi asosga ko'chdi. Safaviylar hukumdori Shoh Tahmosip I gumashtalari hajga olib boruvchi yo'llarni o'z qo'lllariga olib, hajga boruvchilarga har tomonlama xalaqit berar mulklariga tajovuz qilar va o'zlariga zarar etkazar edi. O'ttiz yoshni qarshilayaotgan navqiron Abdullaxonga amirlari murojaat qilib, Xurosonga yurush boshlashni taklif etadilar. Buning ustiga xonning piri Xoja Islom Xurosonga, g'ayri din shialar ustiga yurushi zarurligini mudom unga uqtirib kelardi. 1561 yil bahorida Abdullaxon o'z qo'shinlari hamrohligida Amudaryo tomon ot surib, daryo qirg'og'iga chodir tikadi³. O'ttiz yoshni qarshilayotgan navqiron Abdullaxonning Xurosonga yurish qilish rejasi amirlarning bu taklifiga muvofiq kelib, xon yurish tadorigini ko'ra boshladи. Buning ustiga xonning piri Xoja Islom Xurosonga, g'ayri din shialar ustiga yurish zarurligini mudom unga uqtirib kelardi. Abdullaxon Xuroson yurishi to'g'risida Xoja Islomni ogoh etmay, Qarshi tarafga shikorga borajagini bildirib, undan ruxsat oladi. 1561 yil bahorida Abdullaxon o'z qo'shinlari hamrohligida Amudaryo tomon ot surib, daryo qirg'og'iga chodir tikadi. Shu payt amakisi, Balx hokimi Pirmuhammadxon oldidan chopar kelib, unga Pirmuhammadxon Shibirg'onga kelganini hamda Abdullaxon bilan uchrashmoqchi ekanini, shuningdek, agar Abdullaxon rozi bo'lsa, birgalashib Xurosonga yurish qilish niyati borligini yetkazadi. Abdullaxon amakisi bilan hamjihatlikda Xurosonga yurishni ma'qul topib, Qarshi yaqinida Amudaryodan o'tadi va Shibirg'on tomonga qarab yo'l oladi. Ikkalasi uchrashganda esa Pirmuhammadxon Abdullaxon Buxoroni Balxga almashishni taklif qiladi. Abdullaxon uzoq mulohaza yuritmay, bu taklifni qabul etadi. Xoja Islomning bu kelishuvga rozi emasligi hisoblanadi. Ikki viloyat hukmdorlari o'zaro kelishuv bilan ovora bo'lgan davrda Xoja Islom Qarshi yaylovlarida shikor sayrida edi. Husayn as-Saraxsiyning "Manoqibi sa'diya" nomli qo'lyozma asarida keltirilishicha, shu payt mirishkor kelib, «Abdullaxon Buxoroni berib, Balxni oldi» deb xabar yetkazadi. Buni eshitib Xoja Islom: «Ajab zamon bo'ldiki, mirishkor bu xabarni yetkazdi», – dedi. Shikor sayrining to'rtinchı kuni Xoja Islom Qarshi yaylovlaridan Buxoroga keladi. O'sha kuni Buxoro ostin-ustun edi. Chunki Qulbobo ko'kaldosh Abdullaxon buyrug'i bilan Arkdag'i haramni

³ To'rayev H; Buxoro xonligining XVI-XVII Asrlar ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy -madaniy hayotida Jo'ybor Xojalarining tutgan o'rni. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya – Toshkent.: 2007. -B. 96.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

yuklab, Balxga olib ketmoqchi bo‘lib turgandi. Xoja Islom: «Shaharda g‘avg‘omi?», – deb so‘raganda, unga «Viloyat tamoman barham topdi», - deb javob berishadi. Ikki o‘rtadagi kelishuvdan besh kun o‘tgach, Abdullaxonning ukasi Ibodulla sulton Buxoroga kelib, almashuv bekor qilinganligini Xoja Islomga bildiradi. Arkdagi xon haramini Balxga ko‘chirish to‘xtatiladi. Bu orada Abdullaxon ham Buxoroga yetib kelib, zudlik bilan o‘z piri Xoja Islom huzuriga boradi va bemaslahat qilgan ishi uchun uzr so‘raydi. Badriddin Kashmiriyning yozishicha, shu kunlarda Xoja Islom Sumitanda qurilayotgan xonaqoh yaqinida o‘z mulozimi Mavlono Qosim Axsigiy bilan o‘tirardi. Abdullaxon pir huzurida hozir bo‘lganda Xoja Islom unga quyidagi kinoyali gaplarni aytadi: «Siz bu viloyatni (ya’ni Buxoroni) shamshir zarbi va bozu qudrati ila musaxxar etmagansiz. Shuning uchun uning qadrini bilmaysiz. Mudom sahro va tog‘larda sayr va shikor ila mashg‘ulsiz. Bu viloyat qadrini biz bilamiz. Necha yillar riyozat chekib uni Sizning tasarrufingizga o‘tkazdik»⁴.

«Ma’noqibi sa’diya»da ko‘rsatilishicha, Abdullaxon Marv hokimi Poyanda Muhammad sultonga bir necha bor kishi yuborib Chorjo‘yni talab etgan bo‘lsa ham, ish uning xohishicha yakun topmadi. Bu ishga Xo‘ja Islomning aralashuvi zarur bo‘ldi. Xo‘ja Islom Abdullaxonga qarata: «Biz kishi uzatamiz va Chorjo‘yni undan olamiz» dedi. Va’daga muvofiq, Xo‘ja Islom o‘z muridi Mavlono Husayniy orqali Marvga, Poyanda Muhammad sultonga maktub yo‘llab, undan Chorjo‘yni Abdullaxonga topshirishni talab etdi. Poyanda Muhammad sulton Xo‘ja Islomning sodiq muxlislaridan bo‘lganligi bois uning maktubida qayd etilgan talabni qabul etishga majbur bo‘ldi va nochor Chorjo‘y qal’asi kalitini Mavlono Husayniy orqali Buxoroga uzatdi. Bu voqealarning qisqacha tafsiloti Poyanda Muhammad sultonning ukasi Abulmuhammadxonning Xo‘ja Islomga yozgan maktubida ham qayd etilgan. Xillas, 1558-yil Chorjo‘y Xo‘ja Islom sa’y-harakatalari bilan jangsiz va qonsiz Abdullaxon qo‘l ostiga o‘tib, Buxoroga tobe bo‘lib qoldi. Oroh xo‘ja esa Buxoro xoni Abdullaxonning Chorjo‘ydagi noibi sifatida o‘z o‘rnida qoldirildi⁵. Dadriddin Kashmiriyning ma’lumotlariga ko‘ra, 1556-yilda Xo‘ja Islom Buxoroning Shahrud sug‘orish sistemasidan alohida kanal chiqarib, Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragon davridan to Abdullaxon davrigacha suvsizlikdan qahrab yotgan Somonjuq dashtini sug‘orib obod etgan. Keyinchalik bu kanal Xo‘ja Kab kanali deb nomlanadi. 1559-

⁴ O’sha, asar. -B. 96.

⁵ To‘raev H. Buxoro tarixi “Durdon” nashriyoti Buxoro. 2020. -B. 138.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

yilda Xoja Islomning buyrug'i bilan uning o'g'li Xo'ja Qosim Zarafshon daryosidan Afshona kanaligacha kaanal chiqarib Ismoil Somoniy zamonidan beri suvsiz yotgan biyobon suvsizliklarga suv olib bordi⁶. XVI asrning 50-60-yillarida Xoja Islomning, 70-80-yillarida esa Xoja Sa'dning ijtimoiy-siyosiy mavqeい eng yuqori pog'onaga ko'tarildi. Ular bilan Abdullaxon o'rtasida o'rnatilgan mustahkam munosabatlar Buxoro xonligidagi mavjud siyosiy vaziyat taqozosi hisoblanadi.

Aks holda Abdullaxonning barqarorlikni mustahkamlash va xonlik hududlarinikengaytirish uchun olib borgan kurashlari muayyan to'siqqa uchrashi mumkin edi. Jo'ybor xojalarining ikki yirik vakili yordamida Abdullaxon o'z siyosiy mavqeini mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi;

– Abdullaxonning siyosiy barqarorlikni ta'minlash borasida olib borayotgan kurashlaridan Jo'yboriylar ham manfaatdor edilar. Chunki Movarounnahr va Xuroson hududlarida joylashgan Jo'yboriylarga tegishli ko'chmas mulklar daxlsizligi aynan Abdullaxon yurgizayotgan siyosatga ko'p jihatdan bog'liq edi. Qolaversa, bu mulklarning daxlsizligi Abdullaxon farmonlari bilan qonunlashtirilgan va muhofaza qilingan.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq nashriyoti, 2001. – B. 241.
2. Иванов П. П. Хозяйство джуйбарских шейхов, -С. 50-51.
3. To'rayev H; Buxoro xonligining XVI-XVII Asrlar ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy -madaniy hayotida Jo'ybor Xojalarining tutgan o'rni. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya – Toshkent.: 2007. -B. 96.
4. To'raev H. Buxoro tarixi "Durdona" nashriyoti Buxoro. 2020. -B. 138.
5. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. -T.: "Bayoz". 2021. -B. 140.

⁶ Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. -T.: "Bayoz". 2021. -B. 140.